



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



6. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида воқеатив гап категорияси. – Т.: 2007. – 220 b.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/YXRM6508

## TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK-DIAGNOSTIK METODNING O'RNI

**Shodmonova Munira Burxonovna**

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*[shodmonovamunira@navoiy-uni.uz](mailto:shodmonovamunira@navoiy-uni.uz)*

*ORCID: 0000-0002-2485-3943*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola diagnostik suhbat usuli, undan pedagogik tadqiqot maqsadlarida foydalanishga bag'ishlangan. Shuningdek, suhbatdoshning individual psixologik xususiyatlarini, kasbiy qiziqishlari va moyilliklarini diagnostika qilishda uning afzalliklarini o'rGANADI.

**Kalit so'zlar:** diagnostik suhbat, o'qituvchi-eksperimenter, muloqot, ekstroversiya, introversiya, motivatsiya, filtrlangan savollar, nazorat savollari.

**Annotatsiya.** Данная статья посвящена методу диагностической беседы, использованию ее в целях педагогического исследования. В ней рассматриваются также ее преимущества в диагностике индивидуально-психологических особенностей, профессиональных интересов и склонностей собеседника.

**Ключевые слова:** диагностическая беседа, педагог-экспериментатор, общение, экстровертность, интровертность, мотивация, фильтрованные вопросы, контрольные вопросы.

**Abstract.** This article focuses on the diagnostic method of conversation and using it for purposes of pedagogical research. It also discusses its advantages in the diagnosis of individual psychological characteristics, professional interests and aptitudes of the interlocutor.

**Keywords:** diagnostic interview, teacher-experimenter, communication, extroversion, introversions, motivation, filtered questions, checklists.

Pedagoglarning kasbiy mahoratining asosiy komponentlaridan biri o'quv tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishidir. Buning uchun pedagog texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallaganli yetarli emas. Pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondoshish jarayonida bartaraf qila olishi lozim. Ushbu o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish vosita va yo'llaridan biri ilmiy jihatdan asoslangan psixologik-pedagogik diagnostikadir. Bugungi kunda psixologik-pedagogik diagnostikaning o'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi. Individual yondashish, o'quvchi va talabalarning individual xususiyatlarini o'rGANISH shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlarida aks ettirilgan. Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rGANADI. Pedagogika diagnostika ta'lif samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik



faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilgor ta'lim muassasalarida bu ish uslubi muvaffaqiyatlari tarzda amalga oshirilmoqda, yutuqlar mustahkamlanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida bosh strategik yo'naliishlar belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qo'lga kiritilmoqda. Savol tugiladiki: - bola qobiliyati, imkoniyati, bilimi, egallagan ko'nikmalarining o'lchovi bormi? - bolaning bilish va ko'nikmalariga belgilashga o'qituvchi aralashgani ma'qulmi yoki o'ziga o'zi baho bergani avzalroqmi? Mana shu savollarga eng maqbul asoslarda javob berish pedagogik diagnostikaning predmetidir. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogik faoliyati tarixi bilan deyarli tengdosh. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayon ming yillardan beri mavjud bo'lsa, bu faoliyatning meyorlari va natijalarini belgilash ham shunchalik qadimiydir. Demoqchimizki, o'quvchi bilimiga baho qo'yish, uni sinov va imtihon qilish, pirovard ish natijalarini belgilab olish boshlangan yerda pedagogik diagnostika ham mavjud. Faqat farq shundaki, ibti:y va o'rta asr pedagogikasida bola bilimi va iqtidorini diagnostik tahlil qilishning ilmiy asosi yo'q edi. Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda tahlil etish va yo'lga qo'yish XX asr boshlarida amalga oshirilgan. Shu boisdan, bu pedagogik jarayonning nomlanishi ham turlicha bo'lgan. Ayrimlar pedagogik diagnostikani taklif etilagan bilimlarni o'zlashtirish asosi deyishadi. Boshqalar diagnostikani o'qitishni jadallashtiruvchi axborotdir deb hisoblaydilar. Yana ayrimlar esa diagnostika egallangan bilim sifatini nazorat etishdir, degan fikirni ilgari suradilar. Taniqli pedagog olim Macherman pedagogik diagnostikani «O'quvchi o'zlashtirishi bilan, o'quv materialini to'g'ri tanlash, maqsadni to'g'ri yo'naltirish mezonidir» deb hisoblaydi. Aslida pedagogik diagnostika o'quv materialini bilish jarayonining asosini tashkil etib, maqbul pedagogik xulosaga kelishga zamin yaratadi. Shu boisdan ham pedagogik diagnostika: birinchidan, o'quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi; ikkinchidan, davlat va jamiyatning ta'limga qo'ygan talablaridan kelib chiqib, o'quvchi bilimini to'g'ri, adolatli baholashni ta'minlaydi; uchinchidan, ishlab chiqilgan ta'limiy mezon, kriteriyalari orqali o'quvchining sinfdan sinfga o'tishda, mutaxasislikka qabul qilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi. Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta'lim obyekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada o'zlashtirilganligi tahlil etiladi, butun o'quv kursini, o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasi baholanadi. U o'quv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo'l ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobjiy ta'sir qiladi. Pedagogik diagnostika tarixiga nazar tashlasak, o'tgan asrlarda u faqat o'quvchi bilimini baholash orqali amalga oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864-yilda AQSh olimlari D.Fisher va R.Resslar asos solganlar, 1908-yildan



boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orqali o'quvchi bilimini sinash tizimini tadbiq etgan.

Hozirda keng qo'llanilib kelinayotgan test orqali o'quvchi bilimini sinash tizimi 1908-yilda olim T.Stoun tomonidan fanga kiritilgan. Pedagogik diagnostikaning taqqoshlash, pedagogik tahlil, avvaldan ayta bilish (prognоз), interpretatsiya, pedagogik diagnostika natijalarini o'quvchilarga yetkazish, amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o'quvchilarga yetkazish, pedagogik diagnostika metodlarini to'g'ri belgilash kabi jihatlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, pedagogik diagnostikaning eng muhim kriteriylari sifatida haqqoniylilik, ishonchlilik, puxtalik qayd etiladi. Bu uslubning o'ziga xos metodlari ham mavjud. Ular:

- kuzatish metodi;
- so'roqlash metodi;
- test metodi.

*Pedagogik diagnostikada kuzatish metodi.* Uni qo'llash jarayonida, ta'limga muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzlusiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'limga -tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

*Pedagogik diagnostikada so'roqlash metodi.* Ushbu metod pedagogik diagnostikada juda qadimdan buyon foydalanimizda bo'lgan. So'roqlash metodi bilim olish va berish jarayoni boshlangandan buyon mavjud. Kuzatish metodida o'quvchining axloqiy-ma'naviy tamoyillari, qiziqishi, munosabati, fikrlash :rasi o'rganilsa, so'roqlash metodi esa suhbat va savol-javob orqali ko'proq ma'lumot to'plash imkonini beradi. Bu uslubda o'quvchi to'g'risida subyektiv yoki obyektiv ma'lumot olish mumkin. Axborot og'zaki, yozma, standartlashtirilgan, yakka, guruhlarga bo'lingan holda bir yoki bir necha bor so'rash asosida to'planadi.

*Pedagogik diagnostikada test metodi.* Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu metodga T.Stoun 1908-yilda asos solgan bo'lib, u ilmiy asoslarga qurilgan va ma'lum talab,qonun-qoidalar zamirida amalga oshiriladi. Odadta pedagog tomonidan o'tkazilgan barcha nazorat shakl va uslublari ham test hisoblanadi. Test asosan psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilib, amaliyotga tavsiya etilgan. U pedagogik diagnostika metodlari orasida qulayligi, sifatli va aniq



ma'lumot berishi bilan ajralib turadi. Testlar yillar mobaynida yanada yaxshilanib va takomillashtirilib kelinmoqda. Bu metodga turli davrda turlicha izohlar berilgan. Nemis olimi Liner: "Test shaxsning turli holatlarini, shaxsiy xususiyat, imkoniyat va qobiliyatini aniqlovchi ilmiy metoddir", – deb ta'riflagan. Test chinakamiga pedagogik diagnostika metodi bo'lib metodi bo'lib, u jarayonning pirovard natijasini aniqlab berishga qodir mezondir. U :mo tahlillarga asoslanadi. Testlarning ham bir necha turlari mavjud. Ular:

- ta'lismiy muvaffaqiyatlarni aniqlaydigan test;
- shaxs taraqqiyotni va uning imkoniyatlarini belgilaydigan test;
- intellektni aniqlaydigan test;
- umumiyligi natijani aniqlaydigan test;
- muayyan hududda, mакtabda u yoki bu fanni o'qitish samaradaorligini ko'rsatuvchi test;
- professional kasbga moyillik layoqatini, shaxsning funksional imkoniyatlarini aniqlovchi test;
- shaxs psixologiyasini ochib beruvchi test;
- shaxsning yo'naltirilganligini belgilovchi test;
- shaxsning qiziqishi, moyilligini aniqlab, shu sohani takomillashtirishga yordam beruvchi test;
- klinik test va h.k.

Yuqorida bayon etilganidek, test ham baholash, ham pedagogik diagnostika hisoblanadi. O'quvchilar bilimini bu usulda baholash 1930-yilda boshlangan. Lekin, keyingi paytlarda u keng joriy qilinmoqda. Amaliyotda o'zlashtirishga qaratilgan testlar tobora ko'proq o'rinni olib bormoqda. O'zlashtirishga qaratilgan testlar:

- muyyan predmetni o'zlashtirishga qaratilgan testlar;
- o'zbek tilini o'zlashtirishga qaratilga testlar;
- chiroyli yozuvni belgilashga yo'naltirilgan testlar;
- o'qish tezligi va texnikasi baholovchi testlar;
- so'z boyligini aniqlovchi testlar;
- bolaning rivojlanishini va mакtabga tayyorligini aniqlovchi testlar;
- bolaning intellektual faoliyatini aniqlashga qaratilgan testlar;
- bolaning didatik ko'nikma va malakasini belgilovchi testlar va h.k.

Diagnostik suhbat – pedagogik amaliyotda ta'lismiy berish metodi sifatida ko'pchilikka ma'lum. Tajriba ko'rsatadiki, suhbatdan faqat birlamchi verbal axborotni to'plash metodi sifatida foydalanimaydi. Suhbat to'g'ri o'tkazilganda, u shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini: moyilliklarini, qiziqishlarini, tarbiyalanganlik darajasi, o'quvchining hayotiy faktlarga, hodisalarga, mehnatga, o'z xatti-harakatlariga munosabatini chuqr o'rganish va aniqlash imkoniyatini beradi. Suhbat natijasida pedagogda tarbiyalanuvchining shaxsiy sifatlari to'g'risida ko'proq yaxlit tasavvur hosil bo'ladi. Suhbatning kuchli gomoni, birinchidan, tadqiqotchining sinalayotganlar bilan jonli muloqoti, savollarni individuallashtirish, ularni turli variantlarda ishslash, qo'shimcha aniqlashtirish, javoblarning ishonarliligi va to'liqligini tezkor tashxislash imkoniyatida;



ikkinchidan, so'rovning hamma turlarida tadqiqotchining maqsadni belgilashi faraz ko'rinishida ifodalanadi. Oldinga surilgan farazning haqqoniyligi yoki yolg'onligi to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradigan belgilar bor yoki yo'qligi aniqlanadi.

Afsuski, suhbatdan diagnostika metodi sifatida metodik jihatdan noto'g'ri foydalanish holatlari ham uchraydi. Bunda suhbat orqali axborot olish imkoniyati cheklanadi. Shuning uchun suhbat jarayonida tarbiyalanuvchi to'g'risida yetarlicha to'liq (qiziqtirayotgan) axborotni, u to'g'risida ko'proq ma'lumot to'plash uchun suhbatga shaxs diagnostikasi metodi sifatida qo'yiladigan psixologik-pedagogik talablarni hisobga olish zarur.

Eng avvalo, suhbatga puxta tayyorgarlik ko'rish, maqsad, vazifalarni aniqlash, taxminiy reja tuzish, o'quvchilarga berilishi kerak bo'lgan asosiy savollarni aniq; qilib o'ylab chiqish kerak. Pedagog suhbatning sxematik rejasini (nima haqida gaplashishni, nimanani aniqlashni, nimanani qayd qilish)ni o'ylab chiqishi, suhbatni qaysi shaklda o'tkazish yaxshiroqligini o'ylab ko'rishi shart. Bunda suhbatdoshning shaxsiy xususiyatlari (tashqi ta'sirga beriluvchanligi, kamgapligi, odamovi, qiziqqonligi, ekstrovertligi, introvertligi va sh.k.)ni; uning holatini (achchiqlangan, asabiylashgan, quvnoq); uning tadqiqotchi-pedagogga munosabati (ishonchsizlik, yoqtirish, yoqtirmaslik, ishonish)ni; uning bo'ladigan suhbat mavzusiga taxmin qilinadigan munosabatini hisobga olish lozim.

Suhbatni boshlash - bu haqiqiy san'at, pedagogikada bu masala bo'yicha yagona qoidalar yo'q. Ammo har qanday suhbatni moslashish (adaptatsiya) bosqichidan boshlagan ma'qul, bu jarayonda ikkita jiddiy maqsad; tarbiyalanuvchida savollarga javob berish motivatsiyasini hosil qilish va uni sezilmaydigan holda diagnostik izlanishga tayyorlash amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi – tarbiyalanuvchi bilan "aloqa o'rnatish, suhbatni ulab olish"dan iborat. Suhbat erkin bo'lishi uchun uni asosiy maqsadga tegishli savollardan emas, balki ikkinchi darajali (masalan, o'smirlardan futbol yoki xokkey, kinofilm yoki umuman sport va sh.k. to'g'risida so'rash mumkin) savollardan boshlagan ma'qul. Masalan, suhbat davomida tadqiqotchi o'quvchining ta'lim muassasasida o'qitiladigan ayrim o'quv fanlariga nisbatan salbiy munosabati sabablarini bilmoqchi, deylik. U shunday savollar berishi mumkin: "Sen birinchi galda qaysi fanlarni o'rganishni xohlaysan?", "Senga qaysi fanlar qiziqroq?" va sh.k. Bu savollarga javoblar o'quvchining o'rganilayotgan fanlarga ijobiy yoki salbiy munosabatini keltirib chiqarayotgan har xil sabablarni aniqlash imkonini beradi.

O'quvchida suhbatda qatnashishga motivatsiya hosil qilish – birmuncha murakkab vazifa. Chunki, har bir o'quvchining o'z qiziqishlari va intilishlari bo'ladi. Bunday motivatsiyani qanday qilib hosil qilish mumkin? O'quvchilarni savollar bilan qiziqtirish zarur. Aynan savollar – suhbatning eng muhim tarkibiy qismi. Ammo savollar ularning hayotiy ehtiyojlari, qiziqishlari, nimalarni qadrlashlari va afzal ko'rishlariga tegishli bo'lishi, pirovardida esa, ular uchun shaxsiy mazmunga ega bo'lishi lozim. O'quvchining shundan keyingi qiziqishini oshirish va tadqiqotchi bilan munosabatini mustahkamlash birinchi savollarga



javob berishi jarayonida amalga oshiriladi. Buning uchun munosabat o'rnatishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Bunday savollarga javoblar yetarlicha yengil va suhbatning boshidagi ehtiyojlarga tegishli bo'ladi. Ular imkonи boricha suhbat (so'rov) mavzusiga yaqin bo'lishi va o'quvchini tadqiqotchi o'rganayotgan muammolar :rasiga sezdirmay olib kirishi kerak. Masalan, kasbga yunaltirish muammosi buyicha kollej bitiruvchisiga shunday savol berilishi mumkin: "Faraz qilaylik, senga maktab bitiruvchisi kasb tanlashda yordam berishni so'rab murojaat qildi. Sen unga qanday maslahat bergen bo'lar eding?" Bunday savol suhbatdoshga yoqmay qolishi mumkin emas. Chunki unga maslahat so'rab murojaat qilinmoqda. Bu savol o'quvchi tanlagan kasbining nufuzli ekanligiga tegishli, demak, kollej o'quvchisining motivatsiyasini belgilaydi va uni suhbatning muammolari :rasiga olib kiradi.

So'rov (suhbat) keyingi bosqichining asosiy mazmuni – qo'yilgan maqsadga erishish, ya'ni qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur axborotni yig'ishdan iborat. Suhbat davomida quyidagi savol turlaridan foydalanish mumkin: yo'naltiruvchi-psixologik filtrlar va nazorat savollari. Birinchi turdagи savollar zo'riqishning oldini olish uchun, bir mavzudan boshqasiga o'tish uchun qo'llaniladi. Agar, masalan, so'rovda tadqiqotchi tomonidan tarbiyalanuvchiga uning o'quv faoliyati bilan bog'liq bir qator savollar berilsa va undan keyin esa, hech bir sezilarli bog'lanishsiz uning ota-onasi, o'rtoqlari, tengqurlari bilan munosabatlari to'g'risidagi savollarga o'tib ketilsa, bunday bir mavzudan boshqasiga keskin o'tish tarbiyalanuvchida taajjublanishni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun o'tish silliq bo'lishi kerak, tarbiyalanuvchiga keyingi savollarning zarurligini bildirish lozim. Buning uchun yo'naltiruvchi-psixologik savollarning quyidagi turkumidan foydalanish mumkin:

O'qishdan keyin sen charchab uyga qaytib kelding. Uyda seni ota-onang, akang, singling kutganlar. Sening oldingga, ehtimol, o'rtoqlaring kelishadimi, yoki sen ular bilan kinoga, stadionga borasanmi? Sen uyda bo'lishni yoqtirasamni? Ha, yo'q. Sening uyingga do'stlaring kelib turishadimi? Ha, yo'q.

Bu savollardan keyin tadqiqotchining oiladagi munosabatlarga qiziqayotganligi to'la asoslanadi, o'quvchida bu savollar nima uchun berilayotganligi to'g'risida tushunmovchilik kelib chiqmaydi va u savollarga bajonidil javob beradi. Suhbatning boshqa mavzusiga o'tish uchun "endi esa ... haqidagi bir nechta savollarga o'taylik", "hozir esa biroz boshqa narsa haqida gaplashaylik" kabi "ko'priklar"'ni ham tavsiya qilish mumkin.

Tadqiqotchi suhbat davomida filtr savollardan ham foydalanadi. Ular o'quvchi hayotidan ayrim detallarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, o'quvchining texnik ijodiyot to'garagi to'g'risidagi fikrini aniqlashdan oldin tadqiqotchi uning bu to'garakda ishtirok etishini aniqlashi kerak, aks holda bu savollarni berish mo'ljallangan o'quvchilarga berilmagan bo'ladi, bu esa natijalarning aralashib ketishiga olib keladi.

Nazorat savollari suhbatni o'tkazish amaliyotida keng tarqalgan. Ularning vazifasi – olingen axborotning haqqoniyligini ta'minlashdan iborat. Masalan, kollej o'quvchisi o'zining kelgusidagi kasbidan qanchalik mamnun ekanligini



aniqlash uchun tadqiqotchi unga bir nechta savollar beradi: "Kasb-hunar kollejida o'qishdan xursandmi? Unga kollejda nima yoqadi va nima yoqmaydi? Dam olish uchun bo'sh vaqt qolyaptimi?" Bu savollardan keyin birinchi nazorat savolini berish mumkin: "boshqa kollejga o'tishni xohlarmiding?"; keyin ikkinchisini: "Faraz qilaylik, qaysidir sabablar bilan kollejda o'qimay qo'yding. Keyin unda o'qish uchun qaytib kelgan bo'larmiding?" kabi savollarga berilgan javoblarni solishtirib ko'rish o'quvchining samimiyligi haqida ma'lumot beradi.

Nazorat savollari bir nechta vazifalarni bajarishi mumkin. Ularning yordamida faqat bitta mavzu buyicha javoblarni nazorat qilish emas, balki ular umuman va shu bilan birga ayrim savollarga ishonch koeffitsiyentini hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qila oladi.

Nazorat savollarini ketma-ketlikda bermaslikni bilish zarur. Ularning orasida, odatda, ikkita-uchta savol qo'yiladi. Tadqiqotchi nimani aniqlamoqchi ekanligini o'quvchi payqamasligi kerak.

Suhbatning diagnostika metodi sifatidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan tadqiqotchining pedagogik odobga rioya qilishi bilan bog'liq. Erkin sharoit o'rnatish, suhbatga jonli fikrlar almashuvi xususiyatini berish, rasmiylik elementlarini bartaraf qilish jiddiy ahamiyatga ega. Suhbatning samimiy bo'lishiga quyidagilar yordam beradi:

- agar tadqiqotchi o'quvchining "tepasida turib olmasa", uning ishonchsizligi yoki ehtiyyotkorligini keltirib chiqaruvchi, uning uchun begona, uzoq odam bo'lishga intilmasa;
- agar tadqiqotchi o'z mulohazalarini xayrixohlik bilan, maslahat shaklida aytsa;
- agar tadqiqotchi suhbatdoshini diqqat bilan tinglay olsa;
- agar tadqiqotchi o'quvchining shaxsiy ishlariga, qiziqishlariga samimiy qiziqishini ifoda etsa;
- agar tadqiqotchi sabr va chidam, sezgirlik va e'tiborlilikni namoyon etsa;
- agar tadqiqotchi o'quvchining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olsa;
- agar tadqiqotchi suhbat jarayonida o'zaro ishonch va bir-birini tushunish muhitini yaratса, prinsipiallik, ishchanlikka rioya qilsa, suhbatdoshini xushmuomalalik bilan yo'naltirib borsa, unga "oxirigacha gapirishga" imkon bersa, mensimaslikka, takabburlikka, buyruq ohangiga, tahqirlovchi sifatlashlarga, xafa qiladigan kinoyalarga yo'l qo'ymasa, suhbatni tergovga aylantirib yubormasa.

Natijada o'quvchi chin ko'ngildan hamdardlikni, yaxshi munosabat va o'ziga jalb qilishni his qilib, unda tadqiqotchiga nisbatan ishonch hosil bo'ladi, u o'zining ko'nglidagi fikrlari, hayotiy intilishlari va sh.k.larni aytib bera oladi. Yaxshi, samimiy suhbat suhbatdoshga ma'naviy va ruhiy osoyishtalik topishga yordam beradi, yaxshi ishchanlik kayfiyatini hosil kiladi.

Diagnostik suhbat vaqtida o'quvchining aytganlarini qayd qilish, yozish va belgilar qo'yish tavsiya qilinmaydi, chunki bunda o'quvchi ochiqchasiga gaplashmay qo'yadi. Ammo olingan ma'lumotlarni suhbatdan keyin darhol kundalik yoki kuzatishlar jurnaliga kiritish zarur. Suhbat natijalari diqqat bilan



tahlil qilinadi. Lekin suhbatni o'quvchi shaxsi diagnostikasining universal metodi deb hisoblash mumkin emas. Masalan, shaxs va uning hamma tomonlarini ham suhbat metodi bilan o'rganib bo'lmaydi. O'quvchi o'zining psixik xususiyatlarini, holatini va ko'pgina psixik jarayonlarni tushuntirib bera olmaydi. Shuning uchun suhbat metodi o'quvchi shaxsini o'rganishning boshqa metodlari tizimida qo'llanilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik diagnostika ta'lim jararayonida juda ahamiyatli faoliyat hisoblanadi. Diagnostik tahlillar qachon obyektiv bo'ladi?

Agar sinov natijalari turli tekshiruvlarda bir xil natijalar ko'rsatib, ko'rsatkichlar o'zaro bir-biriga yaqin bo'lsa;

Agar sinov mezonlari, o'lchovlari birligi hamda uning natijalari sinovni amalga oshiruvchi, aniqlovchining shaxsiy xislati va munosabatlariga bog'liq bo'lmasa;

Agar sinov bir xil talab, bir xil munosabat va psixologik kayfiyatda amalga oshirilsa, haqiqiy ahvolni aniqlashda obyektiv natijalar olinishi mumkin. Modomiki maqsad haqiqiy ta'limiy ahvolni aniqlash ekan, unga to'g'ri, halollik, haqqoniylilik bilan yondashish zarur. Aks holda, diagnostikadan ko'zlangan natijaga erishish, to'g'ri tashxis belgilash mumkin emas. Bundan tashqari ayrim sinf ishlarini, ko'pincha esa og'zaki berilgan javoblarni baholashda har xil yondashuvlar qayd etilishi mumkin. Bu sinovchi, ya'ni diagnostik tahlil o'tkazuvchi shaxsning aniq maqsadni tushunib yetishiga, mas'uliyatiga, ishga bo'lgan yondashuviga va nihoyat, uning saviyasiga bog'liq.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Кушнер Ю.З. Методология и методы педагогического исследования (учебно-методическое пособие). - Могилев, МГУ им. А.А. Кулешова, 2001. - 66 с.
2. Зельцерман Б., Рогалева Н. Педагогическая диагностика успешности учебной деятельности. - Рига, Латвия.
3. Полонский В.М. Методы педагогических исследований.
4. Бабанский, Ю .К. Педагогический эксперимент / Ю.К. Бабанский // Введение в науч. исследование по педагогике. - М .,1988.
5. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактического исследования / В.И. Загвязинский. - М., Педагогика, 1982.
6. Кларин М. В. Педагогическая технология в учебном процессе. М.: Знание 1989. 80-с.
7. Фарберман Б. Л. Прогрессивные педагогические технологии Т.: ИПВССШ. 1999. 84-с.
8. Adash Rustamova Eshankulovna, & Qayumova Shaxnoza Anvar qizi. (2023). Theoretical Foundations of Pedagogical Diagnostic Methodology in the Training of Future English Language Teachers. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 4(9), 83-85.



И «ИСТОРИИ ВЧЕРАШНЕГО ДНЯ» Л.Н. ТОЛСТОГО	
<i>To'raqulova Nilufar Amirqulovna. DEGREES OF COMPARISON OF ADJECTIVES IN ENGLISH AND UZBEK</i>	498
<i>Türkan Mahmudzadə. MEHMET AKIF ƏRSOY MILLİ KIMLIK MƏSƏLƏSİ</i>	501
<i>Xamidullayeva Fotima Adxam qizi. XORIJIY TILNI O'RGANISHDA GAPIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</i>	506
<i>Xoziyeva Iroda Zokirjon qizi. DAVLAT TILINI O'QITISHNING ASOSIY TAMOYILLARI (TOJIK TILLI MAKTABLAR MISOLIDA)</i>	513
<i>Mohinur Akhmedova Ziyodulla Kızı. ORTAK TÜRK EDEBIYATI MI, MILLÎ EDEBIYAT MI? PARADIGMALAR ARASI DENGE ÜZERINE KARŞILAŞTIRMALI BİR İNCELEME: TÜRKİYE, AZERBAYCAN VE ÖZBEKİSTAN ÖRNEĞİ</i>	519
<i>Xatirə Bayramova. QARABAĞIN FÜZULİ RAYONUNUN HIDRONİMLƏRİNİN LEKSİK-SEMANTİK XÜSUSIYYƏTLƏRI</i>	527
<i>Davletova Shalola Bahodir qizi. XORXE LUIS BORXES ASARLARIDA EKZİSENSİALİZM</i>	536
<i>Ismailova Gulnoza Odiljon qizi. A CATEGORIZED AND STATISTICAL EXAMINATION OF RELIGIOUS TERMINOLOGY IN KUTADGU BILIG</i>	539
<i>Ro'ziyeva Aziza Bobirovna, Abdusattorova Xadicha Xusanboy qizi. 10-11-SINF O'QUVCHILARIGA SUN'İY INTELLEKT ORQALI MATN YOZISHNI O'RGATISH</i>	548
<i>Валида Шихалиева Надир кызы. НОВЫЕ ПОЭТИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ИРАКСКО-ТУРКМЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ</i>	553
<i>Omonova Qunduz Alisher qizi. HOZIRGI TURKIY TILLARDA UCHRAYDIGAN VARIATIVLIK MUAMMOLARI VA TADQIQOT YONALISHLARI</i>	559
<i>Rahmatillayeva Nozima Nigmatilla qizi. IKKKINCHI TILNI O'QITISHDA IJTIMOIY VA LINGVISTIK XILMA-XILLIKNI QOLLAB - QUVVATLOVCHI (EQUITABLE) YONDASHUV</i>	562
<b>VI SHU'BA. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</b>	
<i>Tursunoy Yusupova Axmedovna. O'QUVCHILAR NUTQIY KOMPETYENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY OMILLARNING O'RNI</i>	576
<i>Shodmonova Munira Burxonovna. TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK-DIAGNOSTIK METODNING O'RNI</i>	579
<i>Kuldasheva Sanobar Xayotovna. RAQAMLI TEKNOKRATLASHUV SHAROITIDA QO'SHMA GAPLARNI O'QITISH USULLARI</i>	587
<i>Iskandarova Gulbahor Turabayevna. XORIJLIKLARNING O'ZBEK TILINI O'RGANISHIDA SO'Z MA'NOLARINING O'ZLASHTIRISHI</i>	592

